



Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

QORA DENGIZ VA UKARAINANING TURKIYA TASHQI SIYOSATIDAGI AHAMYATI.

Suhrobbek Ravshanov

Tayanch doktorant,
O'zbekiston milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Email: suhrobbekravshanov03@gmail.com

MA QOLA HA QIDA

Kalit so'zlar: Bayraktar TB2, Rus-Ukraina urushi, infrastruktura, don karedori, o'zaro aloqalar, Usmoniyalar imperyasi, Qora dengiz, vositachilik, konflikt, hududiy yaxlidlik.

Annotatsiya: Maqolada Sovuq urushdan keyin Qora dengiz bo'yida paydo bo'lgan inqiroz bu mintaqadagi davlatlarning ahamiyatini xalqaro maydonda yanada oshirdi. 2022 yildagi Rossianing Ukrainianadagi bosqini davrida faol netrallikka asoslangan xalqaro munosabatlarda Turkiya diplomatiyasi katta shuhrat qozondi. Ukraina va Rossia o'rtaida vositachilikni amalga oshirgan holda Turkiya bir necha bor qurolli harakatlarni to'xtatishga urindi. Shu bilan birga Ukrainianing bosqinga qarshi muhim jihatlaridan biri bo'lgan Turkiyaning Bayraktar TB2 muhim rol o'ynadi. Bundan tashqari Ukrainianing don eksportini oshirishga va dunyoning don inqirozini yumshatish uchun don karidori vazifasini o'tadi. Turkiyaning xalqaro maydonda vositachilik roli juda ham salmoqli bo'lib xalqaro maydonda o'zining pozetsiyasini yanada mustahamlab olganligi hamda ko'plab kelishuvlarga erisholganini ko'rishimiz mumkin ayniqsa Rossiya va Ukraine urushida o'zining muhim qadamini tashlab xalqaro ziddiyatlarni oldini oldi. G'arb va Yevropa davlatlari bilan don karedorini shakillantirdi. Rossiya va Ukraine urushi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xalqaro konflektlarni oldini olishga urindi. Xalqaro hamjamiyat oldida o'zining mukammal siyosiy diplomatiyasini nomoyish etib, dunyo hamjamiyati oldida o'zining siyosiy ta'sirini yanada oshirib oldi. Shu bilan birgalikda uzoq muddatdan buyon davom etib kelayotgan muammolarni yechishda tashabbus bilan chiqib vositachi davlat ekani ko'rsatdi. Bu borada bir qancha muhim qadamlarni ham amalga oshiradi. Bu borada Yaqin sharqdagi nizoli vazyatlarni yechishda

jonbozlik ko'rsatdi. So'ngi davrlarda G'arb davlatlari bilan munosabatlarda sovuqchilik tushdi. Shunday vaziyatda Turkiya Yaqin Sharqdagi qo'shnilarini yaqin munosabatlar o'rnatdi. Asosiy e'tiborini sharqqa qaratdi. Xususan, Rossiya, Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama munosabatlarni mustahkamlashga urinmoqda. Bir vaqtlar Usmonlilar imperiyasini mustamlakasi bo'lgan Bolqon davlatlarini azaldan Turkiyaga ahamiyati juda muhim bo'lib kelgan. Shu sababdan ularga keladigan xavf yoki ta'sir albatta Turkiya uchun ham daxildordir. Qora degiz ham Turkiyani o'zi uchun ham Bolqon davlatlari uchun juda muhim geostrategik joy hisoblanadi.

THE IMPORTANCE OF THE BLACK SEA AND THE UKRAINE IN TURKEY'S FOREIGN POLICY.

Sukhrobek Ravshanov

Foundation PhD student,

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Bayraktar TB2, Russian-Ukrainian war, infrastructure, grain market, mutual relations, the Ottoman Empire, the Black Sea, mediation, conflict, territorial integrity

Abstract: In the article, the crisis that emerged on the Black Sea coast after the Cold War increased the importance of the countries of this region in the international arena. During the Russian invasion of Ukraine in 2022, Turkish diplomacy gained great prominence in international relations based on active dexterity. To mediate between Ukraine and Russia. Turkey tried several times to stop the actions of the royalists. At the same time, the Turkish Bayraktar TB2, which is one of the most important means of combating the invasion of Ukraine, played an important role. In addition, it will serve as a grain corridor to increase grain exports from Ukraine and mitigate the global grain crisis. We see that Turkey's role as a mediator in the international arena is very important, and it has strengthened its position in the international arena, and many agreements have been reached, especially in the war between Russia and Ukraine, this has prevented international conflicts by taking its important step. He formed a grain market with the countries of the West and Europe. He tried to prevent international conflicts that could arise as a result of the war between Russia and Ukraine. He demonstrated his perfect political diplomacy before the international community and increased his political influence before the world community. At the same time, it has shown itself to be an intermediary state, taking the lead in solving problems that have existed for a long time. Several important steps are also being taken in this regard. In this regard, he showed enthusiasm in resolving conflict situations in the

Middle East. Recently, relations with Western countries have cooled. In such a situation, Türkiye has established close relations with its neighbors in the Middle East. He focused his attention on the east. In particular, Russia is trying to strengthen all-round relations with the countries of Central Asia. The Balkan states, which were once colonies of the Ottoman Empire, have been of great importance for Turkey since ancient times. For this reason, the danger or influence that threatens them definitely applies to Turkey. The Black Sea is a very important geostrategic place for both Turkey and the Balkan countries.

ЗНАЧЕНИЕ ЧЕРНОГО МОРЯ И УКРАИНЫ ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ ТУРЦИИ.

Сухроббек Равшанов

Докторант,

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

Байрактар TB2, российско-украинская война, инфраструктура, рынок зерна, взаимоотношения, Османская империя, Черное море, посредничество, конфликт, территориальная целостность

Аннотация:

В статье кризис, возникший на Черноморском побережье после Холодной войны, повысил значимость стран этого региона на международной арене. Во время российского вторжения в Украину в 2022 году дипломатия Турции получила большую известность в международных отношениях, основанная на активной ловкости. Выступать посредником между Украиной и Россией. Турция несколько раз пыталась остановить действия роялистов. В то же время важную роль сыграл турецкий Bayraktar TB2, который является одним из важнейших средств борьбы с вторжением на Украину. Кроме того, он послужит зерновым коридором для увеличения экспорта зерна из Украины и смягчения мирового зернового кризиса. Мы видим, что роль Турции как посредника на международной арене очень важна, и она укрепила свои позиции на международной арене, и было достигнуто множество соглашений, особенно в войне между Россией и Украиной, это предотвратило международные конфликты, сделав свой важный шаг. Он сформировал рынок зерна со странами Запада и Европы. Он старался предотвратить международные конфликты, которые могли возникнуть в результате войны между Россией и Украиной. Он продемонстрировал свою совершенную политическую дипломатию перед международным сообществом и увеличил свое политическое влияние перед мировым сообществом. В то же время оно проявило себя как государство-посредник, взяв на себя инициативу по решению проблем, которые

существовали в течение длительного времени. В этом отношении также предпринимается несколько важных шагов. В связи с этим он проявил энтузиазм в решении конфликтных ситуаций на Ближнем Востоке. В последнее время отношения с западными странами охладились. В такой ситуации Турция установила тесные отношения со своими соседями на Ближнем Востоке. Он сосредоточил свое внимание на востоке. В частности, Россия пытается укрепить всесторонние отношения со странами Центральной Азии. Балканские государства, бывшие когда-то колониями Османской империи, с древних времен имели для Турции большое значение. По этой причине опасность или влияние, которое им грозит, определенно относится и к Турции. Черное море является очень важным геостратегическим местом как для Турции, так и для балканских стран.

KIRISH

Dunyoda borgan sari globalizatsiya va integratsiya jarayoni tobora rivojlanib borayotgan bir davrda. Har bir mamlakat o’zining o’ziga xosligini va yaxlidligini saqlab qolish dolzarb masalalardan biri bo’lib bormoqda. Ayniqsa, yaqinda boshlangan Rus-Ukrain munosabatlarini yomonlashishi va urush holatiga kirishi dunyoning ko’plab rivojlangan davlatlarini sarosimaga solib qo’ydi. Bazilari qaysi tomonni tanlashga boshi qotgan bo’lsa, ayrimlari bu urushni to’xtatish tarafdarları bo’lishdi. Shunday davlatlardan biri – Turkiyadir. U o’zining “yumshoq kuch”siyosatining tarkibiy qismi bo’lgan vositachilik roli juda qo’l keldi. Ikki davlat o’rtasida urushni to’xtatish bo’yicha kelishuvlarda vositachi davlat bo’ldi. Biroq Ukraina hududiy daxlsizligi buzilgan deb hisoblab unga harbiy va iqtisodiy ko’mak berdi. Turkiya bundan ko’zlangan maqsadlariga erisha olmadi. Shunday bo’lsada Turkiya uchun Qora dengiz bo’yi hududlari juda muhim strategik nuqta hisoblanadi.

TADQIQOTNING USULLARI

Hozirgi davrda Rossiya va Ukraina o’rtasidagi urushga qaysidir jihatdan dunyoning aksar davlatlari jalb qilingan va butun dunto nigohi shu yerda. Turkiya “yumshoq kuch”ining muhim element hisoblangan vositachilik rolini bu ikki davlat munosabatlarida ham o’rinli foydalanishga intilmoqda. Bu voqealarni yaqindan kuzatgan va izlanish olib brogan olimlar sirasiga quydagilar kiradi. Hakan Ardemir, Ilyas Dağlı, Fatih Kocha, Fatih O’zbay, Bulent Pajal, Habibi O’zdal, Mutlu Sefa, Zeyno Baranlar katta hissa qo’shishgan.

NATIJALAR

Qora dengiz butun tarix davomida balki bugungi kunda ham xalqaro arenada eng muhim strategik hududlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bu mintaqaga qaratilgan strategiya va qiziqish mintaqaning geosiyoyi ahaliyatini belgilab turibdi.

Xalqaro munosabatlarda Qora dengizning ahaliyatini tahlil qilishdan oldin avvalo biz bu hududning tarixiga nazar tashlashimiz kerak. Qadim davrlardan beri O’rta Yer dengizing

muhim markazlaridan biri bo'lib qolmay balki mill avv X asrdan beri O'rta Yer dengizi bo'yi xalqlar Qora dengiz bo'yidagi xalqlar bilan yaqin aloqalarni yo'lga qo'ygan. Keyinchalik ular bir qancha geografik kashfiyotlarni amalga oshirishgan. Egiy dengizi bo'yidan kelgan dengizchilar dovul va to'lqnarga duch kelib Qora dengiz bo'yiga borib qolishadi. U yerda oldin ma'lum bo'lмаган qabilalarga duch keladi. Shu sababdan ular Qora dengizni "Pontos Axenos" deb nomlashadi. Buning (tarjimasi yovvoyi) dengiz degan ma'noni bildiradi. Ozroq vaqt o'tgandan so'ng tenologik yutuqlarga erishgach, Egiy va O'rta Yer mintqasidagi xalqlar Qora dengizning ayovsiz qiyinchiliklariga bardosh beroladigan kemalar yasashadi. Shu voqeadan keyin Qora dengizning sir sinoatlarini ko'rishadi. Natijada dengizning nomi "Pontos Exunos" ga o'zgaradi uning ma'nosini mehmondo'st dengiz ma'nosini anglatadi¹.

Usmoniyalar birinchi bo'lib qora dengiz atamasini ishlatishgan keyinchalik u boshqa Yevropa tillariga tarjima qilingan. Qora dengiz qirg'og'i sharqdan Rossiya va Gruziya, g'arbdan Bolgariya va Ruminya, shimoldan Ukraina, janubdan Turkiya bilan o'ralgan. Bu hudud chegaralari borasida uning xalqaro faktorlari va strategiyalarini belgilab beradigan turli xil fikrlar mavjud. Hudud chegaralarini belgilash uchun quyidagi konsipsiyalar mayjud. Danubiy dengiz mintaqasi, Buyuk dengiz mintaqasi, Qora Kasbiy dengiz mintaqasi, Katta Qora dengiz mintaqasi, Boltiq bo'yi xavfsizlik zonasida Qora O'rta Yer dengiz mintaqasi kabi nomlar bilan ishlatilgan. Bu mintaqaning muhim o'ziga xos jihatni Turkiyaning Yaqin sharq, Kavkaz, Markaziy Osiyo va Bolqon davlatlariga yaqinligidadir. Shu tufayli tarix davomida qudratli mintaqaviy va jahoning qudratli davlatlari har doim bu hududda ustин bo'lishga va nazoratda saqlashga urinishgan buning yorqin misoli sifatida Usmoniyalar, Vizantiya, Rim keyinchalik Rus imperiyasi nishonida turgan².

XVIII asrdan beri bu mintaqaga Rus imperiyasi va Usmoniyalar o'rtasida konfliktlar va keskinlik markazi bo'lib kelmoqda. Shuni takidlab o'tish joizki Usmoniyalar Qora dengiz bo'yidagi rus kemalari va portlarini bombardimon qilish orqali birinchi jahon urishiga kirdi. Boshqa tomonidan esa xalqaro maydonda 1915 yilda Dardanel urishidan keyin Qora dengiz orqali yetib keladigan yordamdan maxrum qilish va rus imperiyasini qulatish ko'zlangan edi.

Qora dengizning geografik va geostrategik joylashuvi, turli yer osti boyliklariga egaligi va aholi patinsiyali uni muhim strategik, iqtisodiy, siyosiy, transport markaziga aylantirdi. Shuningdik harbiy maqsadlarda foydalanishda ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu dengiz yuqorisidagi mintaqadan bosib olishga urinishlar va harbiy strategiyalarda Turk Bug'ozining roli harbiy ustinklikning muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi³.

Qora dengizga nisbatan XX asrdagi mintaqaviy va xalqaro kuchlar bir qancha strategiyalarni ishlab chiqishdi. Sovuq urush davrida Sovet Ittifoqining bu mintaqaga nisbatan maqsadi qirg'oq bo'yi mamlakatlari bo'lмаган davlatlarning harbiy kemalari uchun yopib qo'yish bo'lган. Buning natijasida sovuq urush davrida tashqi dunyodan uzilgan holda ushlab turildi. Bundan tashqari NATOning a'zosi bo'lган Turkiya dengizga chegaradosh boshqa barcha davlatlar Varshava shartnomasining bir qismi edi. Sovet Ittifoqi va Berlin devori qulaganda xalqaro maydonda muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Qora dengiz tashqi dunyoga o'z eshiklarini ochdi.

¹ Arıdemir, Hakan. 2011. "Soğuk Savaş Sonrası Dönemde Karadeniz Bölgesi Ve Türkiye'nin Karadeniz Bölgesine Yönelik Politikası" (PhD thesis). İstanbul: M.Ü. Sosyal Bilimler Enstitüsü

² Özbay, Fatih. 2010. "Türkiye-Rusya İlişkilerinde Karadeniz Faktörü". <http://www.bilgesam.org/incele/106/-turkiye-rusya-iliskilerinde-karadeniz-faktoru/#.Vj4Tvl96M8> (20 September 2016)

³ Koca, Fatih. 2010. "Kırım"ın Ekonomik Özellikleri Ve Karadeniz Ekonomik İş birliğindeki Önemi" (master thesis). İstanbul: M.Ü. Eğitim Bilimleri Enstitüsü.

Boshqa tomondan olib qaraganda AQSHning Qora dengizga bo'lgan siyosati, NATOning aralashuvi mintaqadagi Ukraina va Gruziya kabi davlatlarda turli xil rangli inqiloblar bo'lishiga olib keldi. Yangi yuzaga kelgan inqiroz mintaqaga nisbatan Putinining siyosatini o'zgartishishga majbur qildi. Gruziyadagi aralashuv va Qirimni istilo qilinishi, Ukraina va Rossiya o'rtaida 2022 yilda boshlangan urush uning faolligini yanada oshirdi. AQSH siyosatiga ko'ra Qora dengiz chegaralari unga chegaradosh bo'lgan davlatlarga ochqligi bilan bir qatorda bular sirasiga Markaziy Osiyodan Bolqon davlatlarigacha bo'lgan keng hududga tegishlidiir. Sovuq urush tugashi bilanoq bu mintaqada geostratejik kuch vakumi yuzaga keldi bu bo'shliq AQSH va Yevropa Ittifoqi bilan to'ldirilishi kerak edi. AQSHning tashqi siyosatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, dunyodagi eng muhim energiya resurslariga ega bo'lgan qora dengiz bilan yaqinlik u uchun katta strategik imkoniyat edi. Rossiyaning ta'sirini zaiflashtirib bu nimtaqadagi davlatlarning g'arb xususan NATO va Yevro Ittifoqi bilan intigratsiya borasida katta yutuqlarga erishdi. Yevropa Ittifoqining boshqa mintaqalar bilan olib borgan siyosatini taqqoslaydigan bo'lsak bunda Qora dengiz alohida ajralib turadi. Yevropa Ittifoqi tomonidan amalga oshirilgan muhim qadamlar:

1. Yevropa qo'shnichilk siyosati
2. SYNERGY loyihasi (inergetika sohasida hamkorlikni yo'lga qo'yish qaratilgan)
3. Qora dengiz Yevro mintaqqa tashabbusi.
4. INOGATE (davlatlararo neft va gazni Yevropaga tashishga mo'ljallangan).
5. TRASSIKA (Yevropa – Kavkaz – Osiyo transport karedori, xalqaro transport dasturi bo'lib Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo a'zo davlatlarini Yevropa Ittifoqi bilan bog'laydi⁴.

Yevropa Ittifoqining bu mintaqadagi siyosati har doim Rossiya bilan nizoli holatda bo'lgan, ammo boshqa tomondan AQSH siyosatiga mos tushgan. Turkiyaning bu mintaqaga bo'lgan siyosatiga kelsak bir tomondan Turk siyosiy elitasining doimiy qiziqishida bo'lgan bo'lsa boshqa tomondan Usmoniyalar davrida imperianing ichki dengizi hisoblangan. Tashqi dunyo bilan bu dengizni bog'laydigan Bug'ozning suverentligi va himoyasi Turkiya Respublikasining an'anaviy tashqi siyosatida tashqi eng ustivor masala bo'lib kelgan. Turkiya siyosatining asosiy jihatlari;

- A) Tinchlik va barqarorlikni taminlash.
- B) Mintaqadagi davlatlarni hududiy yaxlitligini ilgari surish
- C) Iqtisodiy ittifoqni tashkil etish
- D) Qora dengizni savdo markaziga aylantirishga qaratilgan iqtisodiy va diplomatik harakatlar.

BLACKSEAFOR va Qora dengiz iqtisodiy hamkorlikni tashqil qilishda Turkiyaning faol tashabbusi yuqoridaqilarning yoqrin isboti hisoblanadi.

Turkiya va Ukraina munosabatlari.

Turkiya tashqi siyosatida Ukraina Qora dengiz va Sharqiy Yevropadagi strategik joylashuvi jihatdan muhim ahamiyatga ega. Unda iqtisodiy patensiyal, energetika karedorlarining mavjudligi (Rossiya gazining 80 % Yevropaga Ukraina orqali o'tadi), Qrim hududi Turkiya strategiyasida eng muhim omillar hisoblanadi. Aynan shundan kelib chiqib Turkiya Bolqon davlatlarida Yaqin Sharqda Markaziy Osiya davlatlarida o'z pazitsyasini mustahkamlash uchun ta'sirini oshirib bormoqda⁵. Ukraina mustaqillikka erishgandan so'ng Turkiya Ukrainani 1991 yil, 16 dekabrda tan oldi. 1992 yil, 3 fevralda soyosiy aloqalar o'lga qo'yildi.

⁴ Isic, Mirela et.al. 2008. "The Black Sea Region: Clashing Identities and Risks to European Stability". Munich: CAP Policy Analysis, v. 4

⁵ Özdal, Habibe et.al. 2011. "Türkiye-Ukrayna İlişkileri Yüksek Potansiyel Düşük Voltaj". Ankara: USAK Analiz.

Keyinchalik bir qancha siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ta’lim bo'yicha kelishuv va protakollar imzolandi. Ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishda Prezident. Bosh vazir va Tashqi ishlar vaziri darajasidagi o'zaro rasmiy tashriflar amalga oshrildi. 2012 yil, 13 – 15 sentabr kunlarida Turkiya Respublikasi Bosh vaziri rasmiy tashrif bilan Kiyev va Qrimda bo'ldi 2011 yilning, 24 – 25 yanvar kunlarida Turkiya Respublikasining Bosh vaziri bo'lgan Erdoganning Ukrainaga rasmiy tashrifi davomida katta ahamiyatga ega bo'lgan strategik munosabatlarni yo'lga qo'yishga imkon beradigan Turkiya Ukraina strategik konsulligiga asos solindi. 2011 yil, 22 dekabrda Ukraina Prezidenti Yanukovichning Turkiyaga rasmiy tashrifi paytida kosullikning birinchi yig'lishi o'tkazidi muzokaralar davomida bu mamlakatlar o'rtasida vizasiz rejim va erkin savdo borasida imzolangan kelishuvlar muhim qadamalar hisoblanadi. Konsullikning bir qismi sifatida strategik rejalashtirish bo'yicha o'zaro muloqot guruhi tashkil etildi. Bunda asosan ikki tomonlama munosabatlarda xalqaro va mintaqaviy masalalar iqtisodiy va madaniy jihatlarni ko'rib chiqish ko'zda tutilgan.

2020 yil, 3 fevralda Kiyev shahrida yuqori savyadagi strategik konsullikning oxirgi majlisi o'tkazildi. Ikki o'rtadagi munosabatlarda yana bir muhim jihat Qrim Tatarlar masalasidir. Turkiyaning bunga qiziqishi tarixiy ildizga borib taqaladi. Shu narsa aniqki 1 million Qrim Tatarlar Turkiyada va 2014 yilda Rossiya tomonidan anneksiya qilingan Qrim aftanom respublikasida yashab kelgan. Infrastruktura va turor joylarni qurish orqali Turkiya Ukraina jamiatiga Qrim Tatarlarining integratsiyalashuvini ilgari surdi⁶. Ikki tomonlama aloqalardan tashqari bu ikki davlat xalqaro va mintaqaiy tashkilotlarda faol ishtirok etdi. Bular qatoriga OSCE, NATO va Yevropa konsulliklarida iqtisodiy tashabbus bilan chiqdi shu bilan birga Qora dengiz iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, ifloslanishga qarshi Qora dengiz himoyasi bo'yicha kelishuvda atrof muhitni saqlashga doir takliflar berdi. BLACKSEAFOR va OBSH kabi tashkilotlarda harbiy hamkorlik va tashabbuslar bo'yicha tavsiyalar berdi⁷.

Ikki tomonlama savdo munosabatlariga keladigan bo'lsak 1992 yil, 4 mayda kelishuv imzolangan 1994 yil, 24 aprelda amaliyotda tadbiq qilingan. Yana bir qancha kelishuvlar imzolangan bular sirasiga quyidagilar kiradi. O'zaro mamuriy yordam va bojxona hamkorligi bo'yicha kelishuv; o'zaro investitsiyalarni himoya qilish va rag'batlantirish; Ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish bo'yicha kelishuv; Turkiya Ukraina amaliy rivojlantirish rejasи; savdo munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha protakol; yo'l transporti bo'yicha xalqaro kelishuv; biznes konsullikni tashkil etishga kelishuv; energiya hamorligi bo'yicha kelishuv; turizm borasida hamkorlik kelishuv; standartlashtirish, seritifikatlarsh va metrialogiya davlat qumitasi; havo transport kelishivi; vetrinariya hamkorligi bo'yicha kelishuv; dengizda yuk tashish bo'yicha kelishuvlardir. Alovida takidlab o'tish joizki 2022 yil, 3 fevralda Erdoganning Ukrainaga tashrifi davomida turli sohalarda ikki tomonlama munosabatlarni kuchaytirish uchun sakkizta kelishuv imzolandi⁸.

⁶ Dağlı, İlyas. 2009. "Karadeniz'in Artan Stratejik Önemi Ve Geleceği" (master thesis).İstanbul: İ.Ü. DenizBilimleri Ve İşletmeciliğiEnstitüsü.

⁷ Paçal, Bülent. 2007. Dünya da Değişen Jeopolitik Dengelerİşığında Karadeniz Ve Türkiye'nin Konumu (master thesis). İstanbul: İ.Ü. Deniz Bilimleri Ve İşletmeciliği Enstitüsü.

⁸ Mutlu, Sefa. 2022."Türkiye ile Ukrayna arasında 8 anlaşmazıalandı" <https://www.aa.com.tr/tr/dunya/turkiye-ile-ukrayna-ara-sinda-8-anlasmaimzalandi/2493259> (29 August 2022)

	2015	2016	2017	2018	2019
Savdo ko'lami	4.700	3.926	4.401	4.437	4.881
Eksport	1.181	1.330	1.465	1.684	2.156
Import	3.519	2.596	2.936	2.753	2.725

Jadval 1: Turkiya Ukraina savdosi (million dollar hisobida)

Ukrainada faol faoliyat olib borayotgan turk kompaniyalari - Dogus, Altinbas, Enka, Aysil, Chukurova kabi kompaniyalar turli xil sektorlarga invistetsiya kiritmoqda. Ukraina bilan iqtisodiy va gumanitar munosabatlarni kuchaytirish maqsadida 2017 yilning, 1 iyunidan boshlab ID bilan sayohat rejimi joriy qilindi. 2019 yilda Turkiyaning Ukraianaga eksporti 2,156 mlrd dollarga yetdi, holbuki Ukraina importi 2,725 mlrd dollarni tashkil qilgan.

2022 yilning, 22 fevralida rus qo'shnlari Vladimir Putining buyrug'i bilan Ukrainaga hujum boshladi. Ikkinchi jahon urushidan beri G'arb rahbarlarning bu harakati Yevropada katta urushga aylanib ketishi mumkinligi to'g'risidagi ogohlantirishiga qaramasdan Prezident Vladimir Putin "maxsus operatsiyani" e'lon qildi. Putining qisqa chiqishidan bir necha daqiqa o'tib Ukrainianing eng katta shaharlari yaqinida shuningdek Kiyevda ham ilk portlashlar eshitildi. Putining Ukrainaga agressiyasi borasidagi ilk bayonotida Kiyevdagi hukumatni radikal o'ng kuchlar nazorat qilayotganini ta'kidlab Ukrainiani qurolsizlantirish va fashistlardan tozalashni bildirdi. Yana shuni qo'shimcha qildiki, Rossiya zamonaviy Ukraina hududidan kelayotgan doimiy tahdid natijasida rivojlana olmasligi va xotirjam bo'lmasligini aytib o'tdi.

Buning zamirida g'arb davlatlariga qarshi jiddiy ogohlantirish yozar edi, yani tashqaridan aralashishga urunayotganlarga tarixdagi siz ko'rganlaringizdan ham kattaroq bo'lgan yomon oqibatlarga dush kelasiz agar bunday qilsangizlar. Barcha tegishli qarorlar berilgan o'ylaymanki siz meni eshitdingiz. O'sha kunning o'zidayoq Ukraina Tashqi Ishlar vaziri ukrainaning eng yirik shaharlarida ballestik raketalar nishonida ekanligini ma'lum qildi. Boshqa tomondan esa Ukraina Tashqi Ishlar vaziri Demitri Kuliba Ukrainaga qarshi Putin ommaviy bosqin amalga oshirdi deva bayonot berdi⁹.

Tinch ukraina shaharlari hujum ostida qoldi bu agressiya ukraina o'zini - o'zi himoya qiladi. Butun jahon Putinni to'xtatish kerak, harakat qilish vaqtি keldi. BMT Xavfsizlik Kengashi favqulodda yig'ilish o'tkazdi. Unda Bosh Kotib Antonio Guterish " Prezident Putin, tinchlik bering juda ko'p odamlar o'ldi" deya ta'kidlab o'tdi. Bundan tashqari g'arb davlatlari Rossiyani Ukrainaga bosqinini to'xtatishga chaqirdi. AQSH prezidenti Joe Biden butun dunyo Ukraina

⁹ Rusija ја нападна Украина [Русија ја нападна Украина]. DW.

<https://www.dw.com/mk/%D1%80%D1%83%D1%81%D0%B8%D1%98%D0%B0-%D1%98%D0%B0>

%D%0%BD%D0% B0%D0% BF%D0% B0%D0% B4%D0% BD%D0% B0%D1% 83%D0% BA%D1% 80%D0% B0%D

0% B8% D0% BD% D0% B0-% D0% BF% D1% 83% D1% 82% D0% B8% D0% BD-

%D0% B7% D0% B0% D0% BF% D0% BE% D1% 87% D0% BD% D0% B0-

%D0% B2%D0%BE%D1%98%D0%BD%D0%BA-

D0% B7% D0% B0% D0% B4% D0% B5% D0% BC% D0% B8% D0% BB% D0% B8% D1% 82% D0% B0% D1% 80% D0%

%D1%81%D0%BE%D1%81%D0%B5%D0%B4%D0%BE%D1%82a-60898121(05S)

%D1%87%D0%BE%D1%81%D0%BB%D0%B4%D0%BE%D1%82a-66898121 (3 September 2022)

xalqi bilan birdamligi va ko'plab ayanchli yo'qotishlar olib keladigan urush tanlanganligini shuningdek buning barchasiga javobgar Rossiya ekanligini bayonot berdi. Bunga javoban AQSH uning ittifoqchilari qat'iy tarzda javob olishadi. Butun dunyo rossiyani ayiblaydi.

Shu paytda Jozef Barel " ikkinch jahon urushidan beri Yevropa uchun eng muthish paytlardan biri bo'ldi". Shuningdek Yevropa kengashi prezidenti Ursula Von Der Leyin (biz Kreml dam hisob so'raymiz) deya aytib o'tdi.

Ukraina va Rossiya o'rtasidagi urush borasida Turkiyaning siyosatiga kelsak avvalo Turkiya Ukarinaning hududiy yaxlitligini saqlab qolish pazetsiyasida turdi.

Turkiya prezidenti Erdogan Ukrainianing yaxlitligi hurmat qilinishi kerak deb bayonot berdi. 2022 yil, 22 fevralda AQSH boshchiligidagi g'arb davlatlari Rossiyaning bosqiniga javoban ko'plab davlat inesititulrasi rasmiyalar va olegarxlarga sanksiya qo'ya boshladи. Alovida ta'kidlab o'tish joizki Turkiya Rossiyaga qarshi hech qanday iqtisodiy sanksiya qo'llamadi¹⁰. Turkiyaning netral diplomatiyasi AQSHdagi siyosiy doiralarda norozilikni yuzaga keltirdi. AQSH davlar sekritori Volle Adilyemo Ukrinaga bosqin tufayli qo'yilgan sanksiyalarni chetlab o'tish uchun Rossiya institatlari va magnatlari Turkiyadan foydalanishga urunayotganligi Turkiya davlat sekritori Yunus Eletasni ogohlantirdi. Turkiyaning muhim diplomatik tashabbuslaridan biri o'rtada vositachilik qilish orqali o't ochishni to'xtatish edi.

Turkiyaning Antaliya shahri ikki davlat o'rtasida yuqori darajadagi muzokaralar uchun birinchi bor tanlandi. 2022 yil, 11 martda Turkiya vositachiligidagi Ukraina Tashqi Ishlar vaziri Demitre Kuliba va Rossiya Tashqi Ishlar vaziri uchrashib o't ochishni to'xtatish bo'yicha muzokaralarni boshladи. Biroq muzokaralar kutilgan natijalarni bermadi. Shu yilning, 29 martida yana bir bor ikki tomon delegatlari Istanbulda ikki kunlik muzokaralarni o'tkazishdi. U yerda o'ochishni to'xtatish bo'yicha ikki tomon ham o'zlarining shartlarini aytishdi. Ukraina delegatsiyasi a'zosi David Arakxama Turkiya Ukraina xohlayotgan kafil davlatlardan biri bo'lismek kerakligini aytib o'tdi. Shuningdek, Rossiyani so'zsiz okkuppatsiyasini to'xtatishga chaqirdi.

Rossiya Ukrainiani Qrimni anneksiya qilganligini tan olishga uni quolsizlantirishga, NATO a'zoligidan voz kechishga, Donbasga nisbatan qarashini o'zgartirishga chaqirdi¹¹.

Muzokaralar harbiy harakatlarni imkon qadar to'xtatish uchun umidni o'shirgan bo'lsada, Rossiyaning harbiy harakatlari kuchayishi va g'arb davlatlarining Ukrainianaga yordam ko'magini oshishi o'rtadagi janglarni kuchaytirishda davom etdi. Ukraianing qattiq qarshilik ko'rsatgan omillaridan biri Turkiyaning " Bayraktar TB2" muvaffaqiyati hisolanadi. U qaeshi hujumda Ukraina qarshiligideng eng mashhur ramziy belgisidan biriga aylandi¹².

Bu dron ancha arzon bo'lishi bilan bir qatorda Rossiyaning zamonaviy qimmat harbiy texnikalari va rus askarlariga qattiq zarbalar berib Ukraine kuchlarini ruxlantirdi, boshqa tomonidan esa Rossiyaning siyosiy va harbiy doiralarida notinchlikni yuzaga keltirdi. Minnatdorchilik belgisi sifatida Ukraina prezidenti Vladimir Zelenskiy Baykar mudofaa sanoati

¹⁰ Rusya, Türkiye'nin Ukrayna'ya drone satışından rahatsızlığını Ankara'ya bildirdi mi?". [\(03 September 2022\)](https://tr.euronews.com/2022/04/08/rusya-turkiye-nin-ukrayna-ya-drone-sat-s-ndanra-hats-zl-g-n-ankara-ya-bildirdi-mi)

¹¹ Baltacı, Alişan. 2022. "Political and Economic Role of Turkey in the Scope of the Russia -Ukraine War", In: Açıkgöz, Güneş(Ed.) Proceedings Book of the International Congress of Social Science China to Adriatic XIV. Kayseri: IKSAD Global.

¹² Nailia, Bagirova. "After Ukraine, 'whole world' is a customer for Turkish drone maker says". [\(02 September 2022\)](https://www.reuters.com/business/aerospace-defense/exclusive-after-ukrainewhole-world-is-customer-turkish-drone-maker-says-2022-05-30/)

bo'yicha Turkiyaning ilg'or kompaniyasi bosh deriktori Haluk Bayraktarni "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirladi.

2022 yil, 22 iyunda Istanbulda Ukraina Rossiya Turkiya va BMT o'rtasida Ukraina donini qayta eksport qilish bo'yicha kelishuv imzolandi. Rajip Teyyip Erdogan va BMT bosh kotibi Antonio Guterish bu kelishuvni imzoladi. Erdogan stressdan, ochlikdan millionlab odamlarni qutqaradigan kelishuv deb atadi, bu "biroz muddat butun dunyoni qamrab olgan xalqaro oziq ovqat inqirozini hal qilishda muhim rol o'ynaydigan tashabbusning ijrochisi ekanligidan faxirdamiz bu kelishuv ochlikni oldini olish birgalikda xalqaro infelyatsiyani yumshatadi¹³. Yevropa davlatlariga boradigan Ukraina donining deyarli hammsi aytib o'tib g'arb dunyosiga qarshi Putin qattiq tanqidlar yo'lladi¹⁴.

XULOSA

Butun tarix davomida Qora dengizning strategik ahamiyati ko'plab global va mintaqaviy davlatlarni bu hududda ustинlikka erishishga undagan Turkiya va Ukraina savdo iqtisodiy munosatlariga kelsak 2007 – 2008 yilda butun jahon iqtisodiy va moliyaviy inqrozi COVID – 19 pandemiyasi Rossianing Ukrainaga bosqini o'zaro munosabatlarda o'zining salbiy aksini ko'rsatdi. Ikki davlat o'rtasidagi siyosiy munosabatlar Rossianing Ukrainaga bosqinidan keyin ancha sezilarli o'sdi. Ukarinaning hududiy yaxlitligini saqlash borasida qat'iy pozetsiyada turdi. Urush davomida faol netrallikka asoslangan Turk diplomatiyasi o'zaro aloqalarda vositachilik rolini o'ynamoqda. Ukrainaga yordam sifatida o'zining Bayraktar TB2 bilan ta'minlamoqda. Turkarning arzon dronlari yordamda ruslarning qimmat va zamonaviy harbiy texnikalarini yo'q qilinishi va ko'plab rus askarlarining halok bo'lishi ukraina kuchlariga katta darajada yordam bermoqda. Shuningdek, ukrinaning don eksportini faollashtirish maqsadida don karedori bo'lib xizmat qildi. Shu narsa aniqki 2022 – 2023 yillarda G'arbning Rossiya bilan munosabatlarining yomonlashishi butun dunyoda gaz va energetika sohasida bir qancha salbiy oqibatlar keltirib chiqardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ardemir, Hakan. 2011. "Soğuk Savaş Sonrası Dönemde Karadeniz Bölgesi Ve Türkiye'nin Karadeniz Bölgesine Yönelik Politikası" (PhD thesis). İstanbul: M.Ü. Sosyal Bilimler Enstitüsü.
2. Özbay, Fatih. 2010. "Türkiye-Rusya İlişkilerinde Karadeniz Faktörü". <http://www.bilgesam.org/incele/106/-turkiye-rusya-iliskilerinde-karadeniz-faktoru/#.Vj4Tvl96M8> (20 September 2016)
3. Koca, Fatih. 2010. "Kırım"in Ekonomik Özellikleri Ve Karadeniz Ekonomik İşbirliğindeki Önemi" (master thesis). İstanbul: M.Ü. Eğitim Bilimleri Enstitüsü.
4. Isic, Mirela et.al. 2008. "The Black Sea Region: Clashing Identities and Risks to European Stability". Munich: CAP Policy Analysis, v. 4.
5. Özdal, Habibe et.al. 2011. "Türkiye-Ukrayna İlişkileri Yüksek Potansiyel Düşük Voltaj". Ankara: USAK Analiz.

¹³ Во Истанбул потписан исторически договор [Во Истанбул потписан исторически договор за извоз на украинското жито]. TRT Balkan. [https://macedonian.trtbalkan.com/world/voistanbul-potpishan-istoriski-dogovor-za-izvoz-na-ukrainskoto-zhito-9624227\(01](https://macedonian.trtbalkan.com/world/voistanbul-potpishan-istoriski-dogovor-za-izvoz-na-ukrainskoto-zhito-9624227(01) September 2022)

¹⁴ Putin"den Batı"ya „tahıl“ tepkisi: Erdogan ile görüşeceğim,<https://www.hurriyet.com.tr/dunya/putinden-batiya-tahil-tepkisi-erdogan-ilegorusecegim-42133758> (04 September 2022)

6. Dağlı, İlyas. 2009. "Karadeniz"in Artan Stratejik Önemi Ve Geleceği" (master thesis).İstanbul: İ.Ü. DenizBilimleri Ve İşletmeciliğiEnstitüsü.
7. Paçal, Bülent. 2007. Dünyada Değişen Jeopolitik DengelerIşığında Karadeniz Ve Türkiye"nin Konumu (master thesis). İstanbul: İ.Ü. Deniz Bilimleri Ve İşletmeciliği Enstitüsü.
8. Mutlu, Sefa. 2022. "Türkiye ile Ukraynaarasında 8 anlaşmazlandı"
<https://www.aa.com.tr/tr/dunya/turkiye-ile-ukrayna-arasinda-8-anlasmaimzalandi/2493259> (29 August 2022)
9. Rusija ja napadna Ukraina [Русија ја нападна Украина]. DW.
<https://www.dw.com/mk/%D1%80%D1%83%D1%81%D0%B8%D1%98%D0%B0-%D1%98%D0%B0> (05 September 2022)
10. Rusya, Türkiye'nin Ukrayna'ya drone satışındanrahotsızlığını Ankara'yabildirdi mi?".
<https://tr.euronews.com/2022/04/08/rusya-turkiye-nin-ukrayna-ya-drone-sat-s-danrahots-zl-g-n-ankara-ya-bildirdi-mi> (03 September 2022)
11. Baltacı, Alişan. 2022. "Political and Economic Role of Turkey in the Scope of the Russia -Ukraine War", In: Açıkgöz, Güneş(Ed.) Proceedings Book of the International Congress of Social Science China to Adriatic XIV. Kayseri: IKSAD Global.
12. Nailia, Bagirova. "After Ukraine, 'whole world' is a customer for Turkish drone maker says".
<https://www.reuters.com/business/aerospace-defense/exclusive-after-ukrainewhole-world-is-customer-turkish-drone-maker-says-2022-05-30/> (02 September 2022)
13. Во Истанбул потписан историски договор [Во Истанбул потпишан историски договор за извоз на украинското жито]. TRT Balkan.
<https://macedonian.trtbalkan.com/world/voistanbul-potpishan-istoriski-dogovor-za-izvoz-na-ukrainskoto-zhito-9624227> (01 September 2022) Putin"denBati"ya „tahlî“ tepkisi: Erdoğan ile görüşeceğim,<https://www.hurriyet.com.tr/dunya/putinden-batiya-tahil-tepkisi-erdogan-ilegorusecegim-42133758> (04 September 2022)